

# IQTISOD VA MOLIYA



## O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLARNING ISLOM MOLIYASIDAN FOYDALANISH NIYATLARIGA UNDOVCHI OMILLARNING EMPIRIK TADQIQI

**A'lam ASADOV<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Shahzoda Sulton Universiteti dotsenti, PhD*

**Ruhiddin ZAYNIDDINOV<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>TDIU katta o'qituvchisi*

### KALIT SO'ZLAR

PLS-SEM model, tadbirkorlar, Islom moliyasi, islom moliyasidan foydalanish niyati, xabardorlik va bilim darajasi, qonunchilik, diniy majburiyat, xulq-atvor nazorati

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Модель PLS-SEM, предприниматели, исламское финансирование, намерение использовать исламские финансы, степень осведомленности и знаний, законодательство, религиозные обязательства, поведенческий контроль

### KEY WORDS

PLS-SEM model, entrepreneurs, Islamic finance, intention to use Islamic finance, awareness and knowledge, legislation, religious commitment, behavioral control

### ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda O'zbekistonda bir nechta islomiy darchalar tadbirkorlar uchun islomiy moliya mahsulotlarini taklif etishayotgan bo'lishsa-da, ularning ko'lami anchayin past holatda saqlanib kelmoqda. Shunga ko'ra, ushbu maqola tadbirkorlarning islomiy moliyadan foydalanish niyatlarining hal qiluvchi omillarini o'rganishga qaratilgan. Shu maqsadda ushbu tadqiqot uchun 2024-yil fevral-aprel oylarida o'tkazilgan online so'rovnoma orqali yig'ilgan ma'lumotlar PLS-SEM modelida tahlil qilinganida tadbirkorlarning islomiy moliyadan foydalanish niyatlariga islom moliyasining biznesni rivojlantirish imkoniyatlari, qonunchilik, xulq-atvor nazorati, xabardorlik va bilim darajasi, diniy majburiyat va hukumatning qo'llab-quvvatlovi kabi omillarning ijobiy ta'siri aniqlandi.

### АННОТАЦИЯ

В последние годы несколько исламских окон предлагают исламские финансовые продукты для предпринимателей в Узбекистане, но их масштабы остаются относительно низкими. Соответственно, данная статья направлена на изучение факторов, определяющих намерения предпринимателей использовать исламские финансы. Для этой цели были собраны данные посредством онлайн-опроса, проведенного в феврале-апреле 2024 года. Результаты модели PLS-SEM показывают, что возможности развития бизнеса в сфере исламских финансов, законодательства, поведенческого контроля, уровня осведомленности и знаний, религиозных обязательств и государственная поддержка положительно влияют на намерения предпринимателей использовать исламские финансы.

### ABSTRACT


In recent years, several Islamic branches have been offering Islamic financial products for entrepreneurs in Uzbekistan, but their scale remains relatively low. Accordingly, this paper aims to explore the determinants of entrepreneurs' intentions to use Islamic finance. For this purpose, the data collected through an online survey conducted in February-April 2024. The results from the PLS-SEM model indicate that the business development opportunities of Islamic finance, legislation, behavioral control, awareness and knowledge level, religious commitment, and government support have positive effects on the intentions of entrepreneurs to use Islamic finance.

**Kirish.** O‘zbekistonda islom moliyasi aholi va biznes sektori vakillari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinmoqda. Ammo, mamlakatda ushbu sohaning o‘sishi va rivojlanishi uchun qonunchilikning mavjud emasligi birinchi darajali to‘siq sifatida ko‘rilmog‘da. Shu sababdan, 2020-yilning oxirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish uchun huquqiy baza yaratish vaqti kelganini ta‘kidlagan edilar [6], negaki aholisining 95 foizidan ortiq qismi musulmonlardan iborat [11] bo‘lgan O‘zbekiston uchun ushbu sohani rivojlantirish muhim sanaladi. Shuningdek, 2023-yilning 16-iyunida O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoev namanganlik saylovchilar bilan uchrashuv chog‘ida “Namanganlik tadbirkorlar xususiy bank ochish tashabbusi bilan chiqsa, biz albatta ularni qo‘llab-quvvatlaymiz. Tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning muqobil tizimlari joriy qilinadi. Jumladan, Namanganda Islom moliyaviy xizmatlariga keng yo‘l ochib beriladi” deb ta‘kidlagan edilar. Qo‘shni mamlakatlar bilan taqqoslaganda, O‘zbekistonning 37 millionli aholisining 95%i islom diniga e‘tiqod qilsa-da, islomiy moliya sanoatidan rivojlanishi bo‘yicha ancha ortda qolmoqda. Bugungi kunga qadar, O‘zbekistonda Islom taraqqiyot banki guruhi o‘zining mijozlariga moliyalashtirishning murobaha, istisno va ijaraga asoslangan moliyalashtirish liniyalarini bir nechta tijorat banklari, jumladan, “Kapitalbank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Trastbank”, “Asia Alliance Bank” va “Turonbank” ATBlar orqali taklif etib kelmoqda [9, 10]. Ammo shu bilan birga, tadbirkorlar faoliyatini islomiy moliyalashtirish ko‘lamini oshirish ishlari juda sekinlik bilan bormoqda. Shu maqsadda, ushbu maqola O‘zbekistonda tadbirkorlarning islom moliyasidan foydalanish niyatlariga ta‘sir qiluvchi omillarni empirik tadqiq etishga qaratilgan, islomiy moliyalashtirishni qabul qilishga ta‘sir etuvchi omillarga oid adabiyotlar tahlil qilingan, qabul qilingan metodologik yondashuv tavsiflangan, tadqiqot natijalari va muhokamalardan so‘ng xulosa va tavsiyalar berilgan.

Adabiyotlar sharhi. PLS-SEM modelimizda foydalanilgan o‘zgaruvchi (omil)larning aksariyati bizdan oldin qilingan tadqiqotlarni ko‘rib chiqish orqali tanlab olingan. Xususan, islom moliyasidan foydalanish niyatining determinantlarini o‘rganish ko‘plab ilmiy ishlarga S.Z Maryam va bosh. (2021), M.A. Jaffar va bosh. (2016), N.S.Mahdzan (2017) [8, 2, 4] larga obyekt bo‘lib, ular tez-tez asosli harakatlar nazariyasini (The theory of reasoned action – TRA) M.Fishbein va I.Ajzen (1980) hamda I.Ajzen (1991) rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasi (The theory of planned behavior - TPB)dan foydalanishgan [3, 1]. Bundan tashqari, S.Aziz va Afaq (2018) [7] islom moliyasiga munosabat va subyektiv normalar Pokistonda islom bank xizmatlaridan foydalanish niyatiga ijobiy ta‘sir qilganligini aniqlaganlar, shuningdek, ular noaniqlik, xabardorlik, muvofiqlik va nisbiy afzalliklarni munosabatni belgilovchi omillar sifatida topishgan. Shuningdek, Omar Boubker va bosh. (2021) [5] ni tadqiqotlarida islom moliyasining narxi, islom moliya institutlarining obro‘si, diniy majburiyat va boshqa omillar ham ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, joriy yilda o‘zimizning olib borgan Delfi metodi tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra aholi va biznes sektori vakillarining islom moliyasidan foydalanishlariga mamlakatdagi islom moliyasi bo‘yicha qonunchiligi, hukumatning ushbu sohani qo‘llab-quvvatlovi, xabardorlik va bilim darajasi hamda biznesni rivojlantirish imkoniyatlari kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Yuqoridagi tadqiqot ishlari natijalaridan kelib chiqib, biz o‘z ilmiy ishimizda islom moliyasidan foydalanish niyati, islom moliyasiga munosabat, xabardorlik va bilim darajasi, diniy majburiyat, iqtisodiy foydalilik, biznesni rivojlantirish, islom moliya institutlari obro‘si, xulq-atvor nazorati, hukumatning qo‘llab-quvvatlovi va qonunchilik kabi omillarni kuzatilmagan o‘zgaruvchilar sifatida tanlab oldik. Tadqiqot ishimiz bizdan oldin amalga oshirilgan ilmiy ishlardan tanlangan hudud, muddat va biz qamrab olgan yangi omillarga ko‘ra farqlanadi va ushbu turdagi ilmiy ishlarni boyitishga yordam beradi.


**Metodologiya.** O‘zbekistonda tadbirkorlar orasida islomiy moliyalashtirishni qabul qilish niyatining hal qiluvchi omillarini aniqlash uchun biz PLS yondashuvi ostida strukturaviy tenglamani modellashtirish (Structural equation modeling – SEM)ni qo‘llagan holda miqdoriy usuldan foydalandik. PLS-SEM modelimizda foydalanilgan so‘rovnoma natijalari google formasi yordamida onlayn tarzda yig‘ildi. 305 ta tadbirkor so‘rovnomada respondent sifatida qatnashishdi. Ma‘lumotlarni tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda modelning mosligi yashirin (latent) omillar va kuzatilgan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tekshirish orqali baholandi. Ikkinchi bosqichda tizimli tenglamalarni modellashtirish (SEM) yondashuvi orqali ilgari surilayotgan gipotezalarini isbotlash uchun regressiya tahlili o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotda taklif qilingan modelni sinash va tahlil qilish uchun IBM SPSS AMOS 26 va Smart-PLS 4.0 ekonometrik modellashtirish dasturlaridan foydalanildi. Regressiya modeli:  $Y = a + bX_i + e$  (“a” o‘zgarimas, “e” esa modeldagi xatolikni ifodalaydi).

Bog‘liq o‘zgaruvchi (Y): Islom moliyasidan foydalanish niyati. Mustaqil o‘zgaruvchilar (Xi): islom moliyasiga munosabat, xabardorlik va bilim darajasi, diniy majburiyat, iqtisodiy foydalilik, biznesni rivojlantirish, islom moliya institutlari obro‘si, xulq-atvor nazorati, hukumatning qo‘llab-quvvatlovi va qonunchilik. Yuqoridagi adabiyotlarni o‘rganib chiqanimizdan so‘ng, ushbu tadqiqotimizning (ilmiy farazlarini) konseptual asosini 1-rasmda shakllantirdik. Bu yerdagi H harfi ingliz tilidagi hypothesis (gipoteza, ilmiy faraz)ning bosh harfi hisoblanadi.



1-rasm Konseptual asos

**Natija va muhokama.** Tadqiqotimizning ushbu qismida O‘zbekistonda tadbirkorlarning islom moliyasidan foydalanish niyatlariga undovchi omillarni PLS-SEM modelida tahlil qilamiz. Quyida ushbu modelimiz bo‘yicha strukturaviy modelimiz va yuqorida keltirib o‘tganimizdek gipotezalarimiz (ilmiy farazlarimiz)ni isbotlash maqsadida PLS-SEM modelimizning grafik ko‘rinishini taqdim etdik (2-rasm).



2-rasm. PLS-SEM modeli

Ushbu tadqiqotda taklif etilayotgan modelni sinab ko'rish uchun 13 ta faraz mavjud bo'lib, ulardan 7 tasi to'g'ridan-to'g'ri, 5 tasi bilvosita (vositachi), 4 ta moderator (1-rasm) sifatida qamrab olingan. Mazkur modelimiz natijalariga ko'ra, bitta gipotezamiz ya'ni H12 (rad etildi)dan tashqari barcha gipotezalarimiz t-test qiymatlari  $>1.96$  dan katta va p-qiymati esa  $<0.05$  dan kichikni tashkil etdi va ushbu gipotezalarni qabul qilishga asos bo'ldi.  $R^2$  me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha natijaga to'xtaladigan bo'lsak, Cohen (1988)ga ko'ra,  $R^2$  0.26 dan yuqori bo'lsa muhim (yuqori) ko'rsatkich sifatida qaralib, bog'liq o'zgaruvchimiz bo'lgan islom moliyasidan foydalanish niyatining  $R^2$  me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsiyenti 0.424 ni tashkil etdi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich bo'yicha barcha moderator latent o'zgaruvchilarimizning ham  $R^2$  me'yorlashtirilgan determinatsiya koeffitsiyentlari ijobiy natijalarni qayd etganini ko'rishimiz mumkin.

Tadbirkorlarning islom moliyasidan foydalanish niyatlariga eng katta ta'sir qiluvchi omillar islom moliyasining biznesni rivojlantirish imkoniyatlari va islom moliyasi bo'yicha qonunchilikning qabul qilinishi ekanligi oydinlashdi. Ya'ni islom moliyasining biznesni rivojlantirish imkoniyatlari (to'g'ridan-to'g'ri ta'sir) bir birlikka o'zgarishi tadbirkorlarning islom moliyasidan foydalanish niyatlarini 0.25 birlikka oshirar ekan. Shuningdek, islom moliyasi bo'yicha mamlakatda qonunchilik (bu moderator latent o'zgaruvchi)ning qabul qilinishi bo'yicha bir birlikka ijobiy o'zgarish tadbirkorlarning islom moliyasidan foydalanish niyatlarini 0.23 birlikka oshirar ekan. O'z o'rnida islom moliyasining hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining va tadbirkorlarning diniy majburiyatlaridagi hamda ularning islom moliyasi bo'yicha xabardorlik va bilim darajalarining bir birlikka ijobiy o'zgarishi mamlakatda islom moliyasi bo'yicha qonunchilikning qabul qilinishini 0.30 va 0.21 hamda 0.11 birlikka oshirar ekan.

**Xulosa.** Olib borgan ushbu tadqiqotimiz bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ilgari surgan 13 ta ilmiy farazlarimizdan faqat H12 gipotezamiz (ilmiy farazimiz) o'z tasdig'ini topmadi. Qolgan barcha ilmiy farazlarimiz o'z isbotini topdi. Demak, yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, tadbirkorlarning islom

moliyasidan foydalanish niyatlaridagi ijobiy o'zgarishlar modelimizda qamrab olingan mustaqil yashirin (latent) o'zgaruvchilar bo'lgan xabardorlik va bilim darajasi, diniy majburiyat, biznesni rivojlantirish, hukumatning qo'llab-quvvatlashi, xulq-atvor nazorati va qonunchilik orqali sodir bo'lishida o'zni yuqori ekan. Shuningdek, islom moliyasining iqtisodiy foydaliligi va islom moliya tashkilotlarining obro'si tadbirkorlarning islom moliyasiga bo'lgan ijobiy munosabatlariga ta'sir qilishi o'z isbotini topdi.

O'z o'rnida taklif sifatida keltirishimiz joizki, agar hukumat tomonidan ushbu mustaqil latent o'zgaruvchilarining ijobiy holatga kelishi uchun tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib borilsa, mamlakatda islomiy moliyadan foydalanishni kengaytirish borasida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ajzen I. The theory of planned behavior // *Organizational Behavior and Human Decision Processes*, 1991. – Vol. 50. Issue 2. – PP. 179–211.
2. Jaffar M.A., Musa R. Determinants of attitude and intention towards Islamic financing adoption among non-users // *Procedia Economics and Finance*, 2016. – Vol. 37. – PP. 227-233.
3. Fishbein M., Ajzen I. Understanding attitudes and predicting social behavior, 1980.
4. Mahdzan N.S., Zainudin R., Au S.F. The adoption of Islamic banking services in Malaysia // *Journal of Islamic Marketing*, 2017. – Vol. 8, Issue 3. – 496–512.
5. Boubker O., Douayri K., Ouajdouni A. Factors affecting intention to adopt Islamic financing: Evidence from Morocco / *MethodsX*, 2021. – Vol. 8. 101523
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020-yil 29-dekabr). 2023-yil 31-martda e'lon qilingan.
7. Aziz S., Afaq Z. Adoption of Islamic banking in Pakistan an empirical investigation // *Cogent Business & Management*, 2018. – Vol. 5. 1548050.
8. Maryam S.Z., Ahmad A., N. Aslam, Farooq S. Reputation and cost benefits for attitude and adoption intention among potential customers using theory of planned behavior: an empirical evidence from Pakistan // *Journal of Islamic Marketing*, 2021. Vol. 13. Issue 10. ahead- of-print, doi:10.1108/JIMA- 03-2021-0059.
9. Xasanov X. Ahloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovatsion moliyalashtirish vastiasi sifatida (O'zbekiston va MDH misolida) // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – № 5, 2017.
10. [https://uza.uz/uz/posts/islom-taraqqiyot-bankining-toshkent-anzhumani\\_298637](https://uza.uz/uz/posts/islom-taraqqiyot-bankining-toshkent-anzhumani_298637)
11. <https://www.findeasy.in/population-of-uzbekistan/>